

KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№13 (823), 2026-yil 18-iyul

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



Ishlab chiqarish obyektlarida

“MURUNTOV” KONI: ZAMONDAN ILGARILASH MAQSADIDA!

“Muruntov” koni strategik ahamiyatga ega boʻlgan yirik sanoat majmualaridan biri hisoblanadi. Kon dunyodagi eng yirik ochiq usulda oltin qazib olish obyektlaridan biri sifatida eʼtirof etilib, karyer hajmi, qazib olinayotgan togʻ jinslari miqdori hamda yillik oltin ishlab chiqarish koʻrsatkichlari boʻyicha xalqaro miqyosda yetakchi oʻrinni egallab kelmoqda. Soʻnggi yillarda konda geologik zaxiralardan samarali foydalanish, yuqori ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va inson kapitali salohiyatini oshirishga qaratilgan keng koʻlamli islohotlar amalga oshirildi. Natijada, kon global darajada yuqori samaradorlikka ega boʻlmoqda.



Konning asosiy boyligi — yuqori malakali inson kapitali hisoblanadi. Bugungi kunda konda 126 turdagi kasb egalari boʻlgan 3162 nafar mahalliy mutaxassislar mehnat qilmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlarining murakkabligi va yuqori texnologik xususiyati kadrlardan chuqur muhandislik bilimlari, amaliy tajriba va doimiy malaka oshirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, konda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimiga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

“Muruntov” konida qazib olish ishlari yildan-yilga jadal surʼatlarda oʻsib bormoqda. Kon massasini qazib olish hajmlari quyidagi dinamikani namoyon etmoqda:

Yil	Kon massasi hajmi (ming kubometr)
2024-yil	97 850
2025-yil	117 772,48
2026-yil (reja)	200 750

Mazkur koʻrsatkichlar konning ishlab chiqarish quvati yuqori surʼatlarda ortib borayotganini va korxona jamoasi istiqbolli rivojlanish strategiyasi asosida faoliyat yuritayotganini koʻrsatadi. Ayniqsa, 2026-yil uchun belgilangan rejayiv koʻrsatkichlar konchilik ishlarini industrial miqyosda kengaytirish jarayonini ifodalaydi.

Kon ishlarining dastlabki va texnologik jihatdan eng muhim bosqichlaridan biri burgʻilash jarayoni hisoblanadi. Qazib olish hajmlarining oʻsishi burgʻilash ishlari koʻlamini ham kengaytirishni talab etmoqda.

Yil	Burgʻilash uskunalar soni	Burgʻilash hajmi (ming p.m.)
2024-yil	27 ta	2 082
2025-yil	29 ta	3 722
2026-yil (reja)	38 ta	7 794

Davomi 2-betda

Iftixor

MAMLAKATIMIZ YOSHLARIGA BOʻLGAN EʼTIBORDAN MAMNUNMIZ

Davlatimiz rahbari rahnamoligida yoshlarga oid davlat siyosati ustuvor yoʻnalishlardan biriga aylandi. Yangi Oʻzbekiston yoshlari har tomonlama qoʻllab-quvvatlanib, bilim olishi, zamonaviy kasb-hunarlarni egallashi, orzu-maqсадlarga erishishi yoʻlida keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bu esa, yosh avlodning kelajakka boʻlgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Biz yoshlar davlatimizning yuksak eʼtibori va gʻamxoʻrligidan mamnunmiz. Bu ragʻbat va ishonch, albatta, jonajon Vatanimiz ravnaqi yoʻlida siddiqdildan xizmat qilishga chorlaydi. Har tomonlama qoʻllab-quvvatlashni mehnat va yutuqlarimiz bilan oqlab, yurtimizga naf keltirishni yuksak sharaf, muqaddas burch, deb bilamiz. Ayni paytda yoshlarimiz barcha jarayonlarda faol ishtirok etib, mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshmoqda va ulkan natijalarga erishmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilm-fan, innovatsiyalar va yuqori texnologiyalar sohasini rivojlantirish uchun biz, yosh tadqiqotchilarni muhandislar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ana shu imkoniyatlar tufayli, men 2025-yilda Yevropaning “Startup Campus” dasturi granti sohibi boʻldim va dastur doirasida Vengriya, Germaniya, Italiya hamda Fransiya davlatlarida stajirovka oʻtab qaytdim. Toʻplangan tajriba ilmiy va muhandislik faoliyatimni yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Muhandislik faoliyatim bilan birga, soʻnggi yetti yilda viloyatimizdagi mingdan ortiq oʻquvchilarga robototexnika va sunʼiy intellekt yoʻnalishlarida muhandislik bilimlarini berib kelmoqdaman. Oʻzbekiston muhandislik va robototexnika assotsiatsiyasining tashkil etilgani ham biz kabi ixtirochi yoshlar uchun keng im-

koniyatlar yaratmoqda. Yurtboshimiz tomonidan ilm-fan va innovatsiya sohasida olib borilayotgan oqilona siyosat natijasida, taʼlim va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish maqsadida, Navoiy kon-metallurgiya kombina-

“Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi tinglovchisi Sanjar Rajabov: “Hazrat bilan NKMKda yoshlar yoʻnalishida, Navoiy mashinasozlik zavodida birga ishlaganmiz. Turli tadbirlarni birga tashkil etganmiz, loyihalarni amalga oshirganmiz. U haqiqatda fidoyi, topshiriqlarga masʼuliyat bilan yondashadigan, yetakchilik qobiliyatiga ega kasbdoshimiz. Kombinat tizimidagi faoliyatida siddiqdildan ishladi, eʼtiborga tushdi. Yaʼni, oz boʻlsada, soz mehnat qildi. Xizmatlari eʼtirofqa arziqlik. Menimcha, davlat mukofoti oʻz egasiga berilgan”.

tida yosh tadqiqotchilar, muhandislar va konstruktorlar uchun yosh muhandislar va konstruktorlar kengashlari faoliyati yoʻlga qoʻyilgani yosh tadqiqotchilarni muhandislar uchun oʻz ilmiy gʻoyalarni yoshlab chiqarish bilan bogʻlash, amaliy loyihalarni rivojlantirishda imkoniyatlar yaratmoqda.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining ellik ming kishilik ulkan jamoasi safida 12 ming nafarga yaqin azmu shijoatli, bilim choʻqqilari, kasb sirlarini puxta egalagan, har qanday masʼuliyatni oʻz zim-

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti professori Olmaxon Hayitova: “Hazratning bilim choʻqqilarini egallashidagi asosiy omil uning bilimga qiziqishi, intilishi va tashabbuskorligidadir. Men buni birinchi kursda Oʻzbekiston tarixi fanidan dars bergan vaqtlarimda payqaganman. Agar insonda qiziqish boʻlmasa, intilish ham boʻlmaydi. Intilish boʻlmagan joyda tashabbus haqida soʻz yuritmasa ham boʻladi. U universitetda yaxshi oʻqidi. Oʻrnak boʻlib, jamoat ishlari, ommaviy tadbirlarda faol qatnashdi. Yetakchilik qobiliyati bilan eʼtiborga tushdi. Hozirgacha maslahatlar olib turadi. Uning davlat mukofotiga sazovor boʻlganini eshitib, rosa quvondim. Omadini bersin!”

dan yosh oʻtib ketdi. Oilada yolgʻiz farzand boʻlganim uchun shunday qiyin pallda har doim onamning yonida turdim. Tarbiyasini olib, yaxshi oʻqishga intildim. Har qanday inson oʻz hayotida qaysidir kasbni tanlaydi. Yoshligimdan muhandis-konstruktorlikka qiziqqanim bois, orzularim Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetiga yetakladi. Bu dargohda mehribon ustozlarim qoʻlida tahsil olib, nufuzli oliygohni mashinasozlik texnologiyasi boʻyicha tugatdim.

Ilk ish faoliyatimni 2017-yilda “Arslon-tov” karyerida boshlaganman. 2023-yildan boshlab esa Navoiy mashinasozlik zavodida muhandis-konstruktor, yoshlar yetakchisi va muhandis-texnolog vazifalarida ishlash nasib etdi. Konchilik va metallurgiya sohasi ham sharafli, ham mashaqqatli kasblardan biridir. Bugun soha fidoyilari amalga oshirayotgan ishlar mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi, soha ravnaqiga munosib hissa boʻlib qoʻshilmoqda.

Shu oʻrinda, oilamiz, oʻzim haqimda qisqacha aytib oʻtsam! Otam rahmatli mening yutuqlarimni koʻrmay, bu olam-

Davomi 2-betda

Oʻzbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga

Keyingi yillarda ulkan ijod maktablaridan biriga aylangan Respublika yosh ijodkorlarining anʼanaviy Zomin seminari yuzlab isteʼdodli yoshlarni katta adabiyot sari boshlamozda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan yoʻlga qoʻyilgan mazkur anjuman bugun nafaqat yosh ijodkorlar uchun mahorat darsi, balki adabiyotning ertangi kuni haqida qaygʻurolayotgan muhim maʼnaviy maydon sifatida ham yuksak ahamiyat kasb etmoqda.



ZOMIN – ILHOM NAFASI UFURGAN MANZIL



Respublikamiz mustaqilligining 35 yiligi arafasida, joriy yilning 7–9-iyul kunlari Jizzax viloyatining soʻlim tabiati qoʻynida joylashgan Zomin tumanidagi “NKMK” sihatgohida oʻtkazilgan Respublika yosh ijodkorlarining navbatdagi seminari ana shu ezgu anʼananing davomi boʻldi. Archazorlar bagʻriga yashiringan, musaffo havosi va betakror manzaralari bilan dil-larga ilhom bagʻishlaydigan Zomin yana bir bor qalam ahlini birlashtirdi.

Anjuman ishtirokchilari dastlab Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonida hazrat Alisher Navoiy haykali poyiga gulchambar qoʻyib, milliy adabiyotimizga boʻlgan yuksak ehtiromni ifoda etdilar. Ana shu maʼnaviy ehtirom ruhi bilan boshlangan safar Zominda yanada mazmun kasb etdi. Shu kuni seminarning tantanali ochilish marosimi boʻlib oʻtdi. Unda mamlakatimiz adabiyoti va madaniyatini namoyandalari, tanikli adiblar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari hamda yosh ijodkorlar ishtirok etdi. Kechqurun esa ustozlar va yoshlar ishtirokida anʼanaviy mushoira tashkil qilinib, sheʼriyat va soʻz sanʼatiga oshno dillarni yana bir bor birlashtirdi.

– Oradan oʻn, yigirma, hatto oʻttiz yoki qirq yillar oʻtar. Ammo Zomin seminari yoshlarimiz qalbida bir umrlik xotira, bir umrlik saboq boʻlib qolishiga ishonaman. Kelgusida tanlovning nufuzi va ahamiyatini yanada oshirish borasida katta rejalar tuzilmoqda. Yoshlarimizda kitobxonlikni, jahon va oʻzbek adabiyotiga boʻlgan mehrini yanada oshirish borasida katta qadamlarni birgalikda amalga oshiramiz, – dedi Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid.

Seminarining ikkinchi kuni mazmunan serqirra ijodiy dasturlarga boy boʻldi. Yoʻnalishlar kesimida shoʻba mashgʻulot-

lari tashkil etilib, ishtirokchilar sheʼriyat, nasr, dramaturgiya, bolalar adabiyoti, badiiy tarjima, badiiy publitsistika hamda adabiy tanqid yoʻnalishlari boʻyicha tajribali ustozlar bilan ijodiy muloqot qildilar. Shuningdek, Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sulton ishtirokida mahorat darsi oʻtkazilib, unda badiiy ijod sirlari, asar ustida ishlash jarayoni va ijodkor masʼuliyati haqida fikr almashildi. Dastur doirasida adib asari asosida tayyorlangan “Soʻz” loyihasi namoyish etildi.

Seminarining soʻnggi kunida tantanali yopilish marosimi boʻlib oʻtdi. Unda faol ishtirok etgan yosh ijodkorlarga diplom va esdalik sovgʻalari topshirildi. Shuningdek, qatnashchilar uchun Zomin sharsharasi hamda osma koʻpriga maʼrifiy-turistik sayohat tashkil qilinib, ularning yurtimiz tabiatining betakror goʻzalliklari bilan yaqindan tanishishlari uchun imkoniyat yaratildi.

Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminari nafaqat ijodiy muloqot va tajriba almashish maydoni, balki kelajak oʻzbek adabiyotining yangi avlod vakillari shakllanadigan, isteʼdodlar charxlana-digan muhim maʼnaviy makondir. Bu yil tadbir ilk bor “Vatandoshlar” jamoat fondi taʼklifiga muvofiq Turkiya, Shvetsiya, Janubiy Koreya, Qozogʻiston, Tojikiston, Qirgʻiziston kabi davlatlardan kelgan, oʻzbek tilida ijod qilayotgan yosh isteʼdod egalari bilan yanada fayzli oʻtdi.

Zomin bagʻrida boʻlib oʻtgan bu galgi anjuman ham mamlakatimiz adabiy hayotida muhim voqealardan biri sifatida yosh ijodkorlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochishi, ularning ijodiy parvoziga yangi qanot bagʻishlashi shubhasiz.

AzamatzARIPPOV, Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi aʼzosi.

■ Iftixor

❏ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Men ham ulkan va ahil jamoa safida ekanligim, kombinat rahbariyati qoʻllab-quvvatlashi bilan yutuqlarga erishib kelayotganimdan mamnunman. Chunki sohamiz nafaqat chuqur bilim va malaka, balki zamon bilan hamnafas boʻlish, yangi texnologiyalarni oʻzlashtirish, oʻz ustida muntazam ishlash, yuksak mas’uliyat, intizom va doimiy izlanishni talab etadi. Ana shuni his qilgan holda, bilim va koʻnikmalarimni boyitish, kasbiy mahoratimni oshirishga intilayapman.

Har qanday inson hayotida shunday unutilmas lahzalar boʻlarkanki, kutilmagan quvonchlarni tuhfa etarkan. “Mard oʻgʻlon” davlat mukofoti bilan taqdirlanishim menga cheksiz shodlik baxsh etdi. Shu kuni odatdagidek ishda edim. Rahbariyat soʻrayotganini



MAMLAKATIMIZ YOSHLARIGA BOʻLGAN EʼTIBORDAN MAMNUNMIZ

“Onasi Lola Hazratova: “Bolamni ota yurti – Nurotaning aziz avliyolari, otasining ruhlari qoʻllagani rost boʻlsin! Shunday kunlarga yetkazganiga shukur! Yolgʻiz-yodgorim, suyuqli oʻgʻlonim Hazratjonning yutugʻidan boshimiz osmonga yetdi. Mehribon Zahro kelinim, barcha yaqinlar, hattoki, endigina hayotni anglayotgan ikki yoshli Afya nabiranning ham quvonchi cheksiz. Tabrik-qutlovlar bir zum ham tingani yoʻq. Bilasizmi, mana shu pallada oʻzimni dunyodagi eng baxtli onalardan biri, deb bildim. Albatta, bu kunlarga yetishish bolajonimga oson boʻlmadi. Barcha sinov va mashaqqatlarni sabr-bardosh bilan yengib oʻtdi. Oʻqidi, oʻrgandi, intildi, buning natijasida oʻttiz sakkiz yoshida yuksak eʼtirofga sazovor boʻldi”.

aytishdi. Borganimda, shu bugunning oʻzida poytaxtga yetib borishim, yaxshi xushxabar kutayotganini aytishdi. Uyda onam, oila aʼzolarim meni sevinch yoshlari bilan Toshkentga kuzatib qolishdi.

Muhtaram Yurboshimizdan davlat mukofotini qabul qilib olar ekanman, bu – kasbinga mehr va sadoqatimni mustahkamladi hamda yanada fidokorona mehnat qilish, yuksak natijalarga erishish va mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshishga kuch bagʻishladi. Ushbu ragʻbatni koʻpming kishilik korxonamiz rahbariyatining biz yoshlarga boʻlgan

gʻamxoʻrligi, kuy-unchak onamning duosi, ustozlarim tarbiyasi, hamkasblarim qoʻllab-quvvatlashi natijasi, deb bilaman.

Yaratilayotgan imkoniyatlar va bildirilayotgan yuksak ishonchni oqlash, mamlakatimiz ilm-fani, innovatsiyalari va sanoati taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshish uchun bor bilim, tajriba va salohiyatimni safarbar etishga doim tayyorman. Shunday jannatmakon yurtning baxtiyor farzandi ekanligimdan hamisha faxrlanaman!

Hazrat SALIMJONOV, “Mard oʻgʻlon” davlat mukofoti sohibi.

■ Korruptsiyaga qarshi kurash – davr talabi

Bugun biz korruptsiya haqida koʻp gapirayapmiz. Ammo aslida gap faqat pora yoki qonunbuzarlik haqida emas. Gap millatning ertangi kuni, farzandlarimiz taqdiri va Vatan kelajagi haqida ketmoqda. Tarix shundan dalolat beradiki, adolat ustuvor boʻlgan davlatlar yuksalgan, manfaatparastlik va korruptsiya ildiz otgan jamiyatlar esa tanazzulga yuz tutgan. Chunki har qanday mamlakatning haqiqiy boyligi uning halol, bilimli va vatanparvar insonlaridir.

KELAJAKNI OʻGʻIRLAYOTGAN ILLAT...

Korruptsiya dunyo mamlakatlari taraqqiyotiga jiddiy toʻsqinlik qiluvchi ijtimoiy-siyosiy illat hisoblanadi. U davlat boshqaruvining samaradorligini pasaytiradi, iqtisodiy oʻsishni sekinlashtiradi hamda aholining davlat organlariga boʻlgan ishonchini zaiflashtiradi. Korruptsiya shaxsiy manfaatni jamoat manfaatidan ustun qoʻyish orqali namoyon boʻladi va jamiyatda adolat tamoyillariining buzilishiga olib keladi.

“Korruptsiya taraqqiyot kushandasi va davlat xavfsizligiga jiddiy tahdididir”. Bu fikr korruptsiyaning nafaqat iqtisodiy, balki maʼnaviy va ijtimoiy xavfini ham yaqqol koʻrsatadi. Ayniqsa, korruptsiyaning kelajak avlodga taʼsiri oʻta tashvishlidir. Agar yoshlar mehnat va bilim emas, balki tanish-bilishchilik yoki noqonuniy manfaat orqali muvaffaqiyatga erishish mumkin deb hisoblay boshlasa, jamiyatning maʼnaviy poydevori zaiflashadi. Adolatga ishonch yoʻqolgan joyda esa taraqqiyot boʻlishi amri mahol.

Shu bois korruptsiyaga qarshi kurashishni faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasiga yuklab qoʻyib boʻlmaydi. Bu har bir ota-ona, har bir oʻqituvchi, har bir rahbar va har bir fuqaroning vijdon masalasidir. Oʻilada halollik tarbiyasi, taʼlim muassasalarida huquqiy madaniyatni shakllantirish va jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni qaror toptirish bu boradagi eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy “Fozil jamiyatning asosi adolat va pok-

lik” ekanligini taʼkidlagan. Darhaqiqat, halollik ustuvor boʻlgan jamiyatdagina inson qadri yuksaladi, qonun ustuvorligi taʼminlanadi va kelajakka ishonch mustahkamlanadi.

Bugun oʻzimizga bir savol berishimiz kerak: Ertaga farzandlarimiz adolat ustuvor boʻlgan jamiyatda yashashini istaymizmi yoki imkoniyatlar pul va manfaat bilan oʻlchanadigan muhitdami? Bu savolning javobi har birimizning kundalik hayotimizdagi maʼnaviy saviyamiz, jamiyat taraqqiyoti uchun oʻzimizning nechogʻlik daxldor deb his qilishimizga bogʻliq. Chunki korruptsiyaga qarshi kurashish — bu faqat qonun talabi emas, balki kelajak avlod oldidagi burchimiz, Vatan ravnaqi yoʻlidagi mas’uliyatimiz va vijdonimiz sinovidir.

Korruptsiya ertaning dushmanidir. U bir avlodning imkoniyatlarini tortib olib, boshqa avlodning orzulariga soya soladi. Kelajakni himoya qilishni istasak, avvalo halollikni himoya qilishimiz kerak. Zero, korruptsiya kelajakni yemiradi, halollik esa kelajakni bunyod etadi. Millatning buyuk kelajagi ham aynan ana shu tanlovga bogʻliqdir.

Korruptsiyaga qarshi kurashishda qonun ustuvorligi, shaffoflik, jamoatchilik nazorati va halollik tamoyillariga qatʼiy amal qilish zarur. Kelajak avlodning huquqiy ongi, maʼnaviyati va mamlakatning barqaror taraqqiyoti korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligini taʼminlaydigan muhim omildir. Shuning uchun har bir fuqaro korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatda boʻlishi va halollik madaniyatini qaror toptirishga

hissa qoʻshishi lozim.

Korruptsiyaning salbiy taʼsiri kelajak avlod taqdirida ham namoyon boʻladi. Birinchi navbatda, korruptsiya yoshlarda adolatga boʻlgan ishonchni susaytiradi. Agar bilim va mehnat emas, balki tanish-bilishchilik ustun boʻlsa, yoshlarda qonuniy mehnatga nisbatan qiziqish kamayadi. Ikkinchidan, korruptsiya taʼlim sifatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Bu esa raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ja-

rayonini izdan chiqaradi. Uchinchidan, korruptsiya iqtisodiy rivojlanishni cheklaydi. Natijada yangi ish oʻrinlari kamayadi, aholi farovonligi pasayadi va kelajak avlod imkoniyatlari qisqaradi. Shu sababli korruptsiyaga qarshi kurashish nafaqat huquqiy, balki maʼnaviy-maʼrifiy vazifa ham hisoblanadi.

Tasavvur qiling, farzandingiz yillar davomida mehnat qildi, kechalari uxlamay dars tayyorladi. Ammo universitetga qabul qilishda bilim emas, pora hal qiluvchi omilga aylandi. Yoki insonlar hayoti uchun javobgar boʻlgan shifokor oʻz bilimi va mahorati bilan emas, tanish-bilishchilik orqali diplom olgan boʻlsa-chi? Bu shunchaki tasavvur emas, korruptsiyaning asl oqibatidir.

Korruptsiyaning asosiy sabablari: huquqiy madaniyatning pastligi, davlat xizmatlarida shaffoflikning yetarli emasligi, jamoatchilik nazoratining sustligi, byurokratik toʻsiqlar va shaxsiy manfaatning ustun qoʻyilishidir.

Buyuk bobokalonimiz, sohibqiron Amir Temur “Mening davlatim adolat ustiga qurilgan, zulm va poraga yoʻl qoʻygan kishi mening dushmanimdir”, “Adolat yoʻq yerda davlat uzoq yashamaydi” degandi.

Kelajak avlodga adolat ustuvor, halollik qadrlangan va inson qadri yuksak boʻlgan Vatanni meros qilib qoldiraylik. Zero, yangi Oʻzbekistonda aynan ana shunday oqilona siyosat olib borilyapti.

Mohigul ESONOVA,
“Navoiyuran” DK Idoraviy harbiylashtirilgan qoʻriqlash otryadi katta inspektori.

■ Ishlab chiqarish obyektlarida

“MURUNTOV” KONI: ZAMONDAN ILGARILASH MAQSADIDA!

❏ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Burgʻilash uskunolari mashinistlarning yuqori maoshi va mehnat sharoitlarining yaxshilanishi sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb qilish va ularni ragʻbatlantirishda muhim omil boʻlib xizmat qilmoqda.

Kon massasini portlatish jarayoni yuqori darajadagi muhandislik aniqligi va murakkab hisob-kitoblarni talab etadi. Karyer chuqurlashib borishi natijasida togʻ jinslarining fizik-mexanik xususiyatlari oʻzgarib bormoqda. Shu sababli har bir burgʻilash qudugʻi uchun alohida zaryad parametrlari ishlab chiqilib, individual yondashuv asosida portlatish ishlari amalga oshirilmoqda.

Yil	Portlatilgan kon massasi (ming kubometr)
2024-yil	66 630
2025-yil	93 304
2026-yil (reja)	182 370

Individual zaryadlash texnologiyalarining joriy etilishi portlatish samaradorligini oshirish, energiya sarfini kamaytirish va togʻ jinslarining optimal granulometrik tarkibini shakllantirish imkonini bermoqda.

Qazib-yuklash jarayonlari “Muruntov” konining asosiy ishlab chiqarish boʻgʻini hisoblanadi. Konda 37 ta yuqori quvvatli elektr va 19 ta gidravlik ekskavatorlari keng qoʻllanilmoqda.

Zamonaviy yuqori quvvatli texnikalardan foydalanish natijasida qazib-yuklash jarayonlarining samaradorligi va ish unumdorligi sezilarli darajada oshirilmoqda.

Kon texnikalarining uzluksiz ishlashini taʼminlash maqsadida, taʼmirlash jarayonlari toʻliq modernizatsiya qilingan. Xususan, kon texnikalarini kapital taʼmirlash muddati avvalgi 90 kundan atigi 20-25 kungacha qisqartirildi. Eng muhimi, endi texnikalar avvalgidек taʼmirlash maydonchasiga olib chiqilmaydi — barcha ishlar bevosita kovjoyning oʻzida amalga oshirilmoqda. Bu esa texnikalarning ishlab chiqarish jarayonidagi toʻxtab qolish holatlarini keskin kamaytirish imkonini berdi. Shu bilan birga, Energiya hamda Kon uskunalarini taʼmirlash sexlari innovatsion loyihalar asosida qayta jihozlanib, ehtiyot qismlarni mahalliy ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyildi. Mazkur yondashuv import oʻrnini bosish,

texnik mustaqillikni taʼminlash va ekspluatatsiya xarajatlarini qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Soʻnggi yillarda kichik quvvatli maʼdan qatlamlari ulushining ortishi metall miqdorini yuqori darajada aniqlashni talab etmoqda. Shu maqsadda, burgʻilash toʻri qayta koʻrib chiqilib, optimallashtirilishi asosida burgʻilash-portlatish ishlari joriy qilindi. Mazkur texnologiya quyidagi natijalarga erishish imkonini bermoqda:

- kon massasining standart granulometrik tarkibini shakllantirish;
- qazib-yuklash jarayonlarida ish unumdorligini oshirish;
- transport xarajatlarini kamaytirish;
- uyumlash jarayonlarini optimallashtirish;
- metall yoʻqotilishini minimallashtirish.

Shuningdek, karyerda qazib olish va tashish jarayonlarini optimallashtirish maqsadida uzluksiz transport texnologiyalari izchil rivojlantirilmoqda. Bu yoʻnalishda konveyyer liniyalarining ish unumdorligi bosqichma-bosqich oshirilib, yuk tashish jarayonlarida uzluksizlik va barqarorlik taʼminlanmoqda.

2026 yilning I choragida konveyyer liniyalari boʻyicha hajm koʻrsatkichlari

Konveyyer liniyasi	2025-yil (ming kubometr)	2026-yil (ming kubometr)	Oʻzgarish (foiz)
№2	2 648	3 111	+17.5
№3	1 986	3 030	+52.6
№4	-	1 873	
Jami	4 634	8 014	+73.0

Yangi ishga tushirilgan 4-konveyyer liniyasi joriy yil I choragida 1 873 ming kubometr hajmdagi kon massasini tashishni taʼminlab, tizimning umumiy quvvatini yanada oshirdi. Konveyyer tizimining bosqichma-bosqich kengaytirilishi transport xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish uzluksizligini taʼminlash va karyerning umumiy logistik samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda.

Maʼdan tarkibidagi oltin miqdorini aniqlash kon ishlarining eng muhim texnologik bosqichlaridandir.

■ Hushyorlikka daʼvat

RAQAMLI ASRNING YASHIRIN TAHDIDI

yoxud kiberjinoyatlar va ularning oqibatlari

Soʻnggi vaqtlarda Navoiy viloyati hududida bank plastik kartalaridagi pullarni talon-toroj qilish bilan bogʻliq jinoyatlar salmogʻi oshib borayotgani har bir fuqaroni raqamli tahdidlardan himoyalaniшинi taqozo etmoqda.

Internet va axborot texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Kiberjinoyatlar nafaqat alohida shaxslar, balki yirik kompaniyalar va butun boshli davlatlar xavfsizligiga rahna solmoqda.

Hozirgi kunda kiberfiribgarlikning qaysi usullari avj olmoqda? Xususan, “Bank xavfsizlik xizmati” niqobi ostida fuqarolarga nomaʼlum raqamdan qoʻngʻiroq qilib, oʻzlarini bank yoki huquq-tartibot idorasi xodimi deb tanishtirishadi. “Kartangizdan shubhali pul koʻchirilmoqda, uni toʻxtatish uchun kodni aytin!” deb sarosimaga solishga urinishadi.

Prezident nafaqasi yoki kompensatsiya vaʼdasi orqali telegram guruhlarida davlat tomonidan pul mablagʻlari, moddiy yordam yoki arzon mahsulotlar tarqatilayotgani haqida soxta xabarlar tarqatiladi. Undagi havolaga kirib, karta maʼlumotlarini kiritgan zahoti pullar gʻoyib boʻladi.

Tanishlarning Telegram yoki ijtimoiy tarmoqdagi profili buzib kiriladi va sizga: yaqinlar nomidan yordam soʻrash, yaʼni, “Zarur boʻlib qoldi, kartamga pul tashlab tur, ertaga qaytaraman”, degan mazmunda xabarlar yuboriladi. Fuqarolar bunga ishonib, bank kartalaridagi pullarini firibgarlarga oʻz qoʻllari bilan oʻtkazib berib aldanib qolishadi.

Fuqarolar oʻzlarini asrashlari uchun 4 ta qatʼiy qoidani bilishlari lozim boʻladi. Birinchidan, aslo SMS-kodni aytmang! Bank xodimlari hech qachon fuqarolardan telefonga kelgan tasdiqlash kodini soʻramaydi. Kodni soʻragan inson – 100 foiz firibgar!

Ikkinchidan, soxta saytlarga karta maʼlumotlarini kiritmang! Davlat tashkilotlari, Click, Payme yoki Olx saytlarining nomiga yaxshilab eʼtibor bering. Firibgarlar sayt nomini birgina harfga oʻzgartirib, soxta sahifalar yaratishadi.

Mablagʻlarning oʻgʻirlanishi, fishing va bank kartalaridagi pullarni noqonuniy oʻzlashtirish oddiy fuqarolarga moddiy zarar yetkazmoqda. Virus dasturlar orqali kompaniyalar bazasi bloklanadi va maʼlumotlarni qaytarish uchun yirik miqdorda pul talab qilinadi. Shaxsiy maʼlumotlarning oʻgʻirlanishi oqibatida jinoyatchilar begona shaxslar nomidan kreditlar rasmiylashtirishi yoki boshqa jinoyatlarni sodir etishi mumkin.

Kiberjinoyatlardan himoyalaniش uchun birinchi navbatda

Ushbu jarayonni tezkor va yuqori aniqlikda amalga oshirish maqsadida laboratoriyalar zamonaviy texnologiyalar asosida kengaytirildi. “Muruntov” koni tarkibidagi Gamma-aktivatsion tahlil markaziy laboratoriyasi maʼdan tarkibidagi oltin miqdorini aniqlash boʻyicha jahondagi eng yirik va yuqori samarali laboratoriyalardan biri sifatida faoliyat yuritmoqda. Laboratoriyaning yuqori aniqlikdagi tahlil imkoniyatlari kon ishlarini optimal rejalashtirish va resurslardan samarali foydalanishga xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2030-yilga qadar qimmatbaho metall qazib olish hajmini oshirish boʻyicha strategik vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalar ijrosini taʼminlash maqsadida konda innovatsion texnologiyalar, raqamli yechimlar va ratsionalizatorlik takliflari natijasida ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada oshirilib, taxminan 550 milliard soʻm miqdorida iqtisodiy tejankorlikka erishish prognoz qilinmoqda. Bu esa texnologik modernizatsiya, muhandislik yechimlari va boshqaruv samaradorligining iqtisodiy natijadorlikka bevosita taʼsir koʻrsatayotganini tasdiqlaydi.

“Muruntov” koni bugungi kunda zamonaviy konchilik sanoatining ilgʻor namunasi sifatida shakllanmoqda. Konda yuqori texnologik ishlab chiqarish jarayonlari, raqamlashtirish, innovatsion muhandislik yechimlari va malakali inson kapitali uygʻunligi taʼminlangan. Ishlab chiqarish hajmlarining barqaror oʻsishi, burgʻilash va portlatish texnologiyalarining takomillashuvi, yuqori quvvatli texnika parki, laboratoriya tahlillarining aniqligi hamda ratsionalizatorlik faoliyati konning global konchilik sanoatidagi raqobatbardoshligini yanada mustahkamlamoqda. Shu tariqa, “Muruntov” koni nafaqat Oʻzbekiston iqtisodiyotining strategik tayanchi, balki jahon oltin sanoatida yuqori texnologik va samarali ishlab chiqarish modeli sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, “Muruntov” koni jamoasi zamon bilan birga ilgarilashni ustuvor maqsad sifatida belgilab, konni ilgʻor texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va yuqori samaradorlikka asoslangan strategiyalar asosida izchil rivojlantirmoqda.

Nuriddin KAMOLOV,
“Muruntov” koni boshligʻi.



fuqarolarimiz qanday choralarni koʻrishi kerak boʻladi?

Bunday oqibatlarining oldini olish uchun har bir fuqaro internet va ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy profil va akkauntlariga murakkab oʻronlardan foydalanishi, ikki bosqichli autentifikatsiyani (2FA) yoqishi, shubhali havolalarga (link) kirmasligi, SMS yoki messengerlardan kelgan, tekin sovgʻa va pul vaʼda qiluvchi havolalarni aslo ochmasligi lozim. Bundan tashqari, dasturlarni yangilab turishi kerak, chunki telefon va kompyuter operatsion tizimlarining doimiy yangilanishi xavfsizlik tizimini kuchaytiradi. Kiberxavfsizlik qoidalarini nafaqat insonning oʻzi oʻrganishi, balki farzandlar va keksa yoshdagi yaqinlarga ham tushuntirib, raqamli savodxonlikni oshirishi lozim boʻladi.

Kiberjinoyatchilik – bugungi kunning zamonaviy urush maydoniga aylanib ulgirdi. Uning oqibatlari faqatgina moddiy yoʻqotish bilan cheklanmaydi. Shu boisdan har bir fuqaro raqamli olamda gigiyena qoidalariga amal qilishi shart. Barqaror va xavfsiz kelajak bizning raqamli makondagi hushyorligimizga bogʻliqdir.

Bugungi kunda telefonimizga kelayotgan oddiygina SMS yoki ijtimoiy tarmoqdagi bitta havola (link) bir soniyada barcha jamʼarmalarimizdan ayrilishimizga sabab boʻlishi mumkin. Kiberjinoyatchilik yildan-yilga rivojlanib, ular ishlatayotgan usullar tobora ayyorona tus olmoqda. Eng yomonini, firibgarlar texnik tizimlarni emas, balki insonlarning ishonchi va qoʻrquvini nishonga olishmoqda.

Xulosa oʻrinda shuni aytish kerakki, raqamli dunyoda eng yaxshi qalqon - bu sizning hushyorligingizdir. Har qanday shubhali vaziyatda his-tuygʻularga berilmay, sovuqqonlik bilan harakat qiling. Oʻrtiqcha his-tuygʻularga berilib, mablagʻingizni xavf ostiga qoldirmang.

Shokir XAZRATQULOV,
Navoiy viloyati IIB KQKB
masʼul xodimi, kapitan.

■ Reportaj

“KELAJAK”DA BOLALAR YOZNI SOZ O'TKAZMOQDA

Yurtimizning har bir go'shasi o'z tarovati, musaffo havosi va betakror tabiati bilan kishini mahliyo etadi. Ayniqsa, Samarqand viloyatining so'lim Urgut tumani tog'lari bag'rida joylashgan, ulkan archalari osmon bilan bo'yashgan hududga qadam qo'yganingizda, o'zingizni ertaklar olamiga tushib qolgandek his etasiz. Aynan mana shu go'zal va maftunkor tabiat qo'ynida 8,3 gektarlik maydonni egallagan “Kelajak” bolalar sog'lomlashtirish oromgohi qad rostlagan.



Bu oromgoh qariyb oltmish yildan buyon yosh avlodning sevimli maskani sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Bir vaqtlar shu yerda mazmunli dam olgan bolalarning ayrimlari bugun keksalik gashtini surayotgani ham uning boy tarix va an'analarga ega ekanidan dalolat berib turibdi. Oromgoh hududiga qadam qo'ygan har qanday mehmonni avvalo tabiatning go'zal manzarasi qarshi oladi. Tashrifimiz paytida bolalar ertalabki nonushtadan so'ng kunlik reja asosida turli mashg'ulotlarga kirishib ketgan edilar. Kimdir sport maydonida jismoniy mashqlar bajarayotgan bo'lsa, boshqa bir guruh bolalar ijodiy to'garaklarda qo'l mehnati, rasm chizish va turli qiziqarli faoliyatlarni bilan shug'ullanar edi. Shu



asnoda fotomuxbirimiz ham bolalarning beg'ubor quvonchi, qiziqarli mashg'ulotlari va oromgoh hayotidan eng yorqin lavhalarini fotokamerasiga muhrlashga kirishdi...

Oromgoh hududidagi turli mevali va manzarali daraxtlar soya-salqin muhit yaratib, hovliga deyarli quyosh nuri tushirmaydi. Rang-barang va xushmanzara gullar esa atrofga alohida ko'rk bag'ishlaydi. Urgut tog'laridan esib turadigan mayin va salqin shabada inson tanasini yayratib yuboradi.

– Bu yilgi yozgi mavsumga puxta tayyorgarlik ko'rildi, – deydi bolalar oromgohi direktori Shuhratjon Boboqulov. – Birinchi mavsumda 356 nafar bolani qabul qildik. Har bir smenada bolajonlarga bosh tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, tarbiyachi, yetakchi, sport yo'riqchisi, suzish instruktori, musiqachi, kutubxonachi, to'garak rahbarlari, shifokor va hamshiradan iborat mas'ullar birlashtiriladi. Ta'lim-tarbiya, madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarni samarali tashkil etish va faoliyat olib borish uchun bolalar bilan ishlashda muayyan malakaga ega, tajribali 45 nafar pedagog, tarbiyachi, yetakchi va to'garak rahbarlari tanlab olinib, har bir bolaning qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ish olib borilmoqda. Ular orasida katta tarbiyachi Qomil Haqberdiyev, katta yetakchi Sabot Fayziyeva hamda ko'p yillik tajribaga ega Zuhridin Doniyorov, Chingiz Amonov, Oksana Aldinazarova, kutubxonachi Dilbar Shodiyeva, “Ekodizayn va interyer” to'garagi rahbari Baxtiniso Berdiyeva kabi mutaxassislar bor. Oromgoh hududida 600 o'ranga mo'ljallangan zamonaviy oshxona bor. Umumiy ovqatlanish bo'limida ovqat tayyorlash sexi, sabzavotlarni saqlash omborxonasi, novvoyxona hamda yarim tayyor mahsulotlar uchun alohida omborxona mavjud bo'lib, ularning barchasi zamonaviy muzlatkich uskunalar bilan to'liq ta'minlangan. Ovqatlanish zalida bolalar uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Oshxonada 20 nafar xodim mehnat qilib, bolalar uchun vitaminlarga boy va sifatli taomlar tayyorlanmoqda. 5 nafar tibbiyot xodimi doimiy navbatchilik asosida ish olib bormoqda. Tibbiyot punktida bir vaqtning o'zida 10 nafar bolaga xizmat ko'rsatish imkoniyati mavjud. Kerakli dori-darmonlar ham yetarli miqdorda zaxira qilinib, bolalarning sog'lig'ini muhofaza qilish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Mavsum boshlanishidan oldin malakali gerpetolog mutaxassis tomonidan hudud to'liq o'rganilib, zararkunandalarga qarshi profilaktik ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda ham mutaxassis har kuni uch mahal hududni ko'zdan kechirib, vaziyatni muntazam nazorat qilib bormoqda.

Bugun bu maskan zamonaviy infratuzilmaga ega so'lim go'shaga aylangan. Barcha qulayliklarga ega madaniyat va ma'rifat xonasi, o'zbek mutafakkirlari va adabiyot namoyandalarning asarlari bilan bir qatorda jahon adabiyoti durdonalari sirasiga kiruvchi boy kitoblarni zaxirasiga ega zamonaviy kutubxona, eng so'nggi rumsdagi ko'rgazmali vositalar va jihozlar bilan ta'minlangan to'garak xonalari, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan yozgi sahna, zamonaviy suzish havzasi, bolalar maydonchalari, zamo-

naviy loyihalar asosidagi yotoq binolari, barcha shart-sharoitlar va qulayliklarga ega bo'lgan oshxona, yuvinish va kiyinish, umumiy dush xonalari mavjud. Oromgohda ota-onalar uchun shinam suhbat ayvonchalari ham barpo etilgan. Bolajonlar salomatligini mustahkamlash maqsadida jannatmakon diyorimiz bag'rida yetishtirilgan tabiiy ne'matlardan foydalangan holda damlamalar tayyorlanib, ovqatlanish ratsioni darmondorilarga boy muvozanatlashtirilgan taomlar bilan boyitilgan. Tajribali sport murabbiylari rahbarligida turli sport musobaqalari, harakatli o'yinlar va sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar o'tkazilib, yoshlarning jismoniy faolligi va sportga qiziqishi yanada oshirilmoqda.

Har yili oromgohda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK hamda “NKMK jamg'armasi” DM tizimida mehnat qilayotgan ishchi-xodimlarning yetti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan 1,4 ming nafardan ortiq farzandlari yozgi ta'limni mazmunli va maroqli o'tkazadi. Bolalarning sog'lom va mazmunli dam olishini ta'minlash borasida kombinat ma'muriyati hamda kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar respublika sanoat korxonalari orasida alohida o'rin tutadi.



Bu maskanda o'g'il-qizlar maroqli dam olib, jismoniy jihatdan chiniqmoqda, shu bilan birga o'z qiziqishlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirmoqda. Oromgohdagi iqtidorli va bilimga chanqoq o'quvchilar bilan suhbatlarimiz davomida uchquduqlik Ruxsora alohida e'tiborimizni tortdi. U bilan muloqot qilganimizda, ingliz tilida ham erkin va ravon so'zlasha olishi, fikrlarini aniq ifodalashi bizda katta taassurot qoldirdi. Ruxsora hozirda oilasi bilan Uchquduqda yasharkan.

– Yozgi ta'lim juda qiziqarli o'tmoqda. Bu yerda dam olish bilan birga o'zimiz yaxshi ko'rgan mashg'ulotlar bilan shug'ullanib, yangi narsalarni o'rganaymiz. Men rasm chizishni yaxshi ko'raman, do'stlarim orasida tikish-bichish, musiqa va sportga qiziqadiganlar ham ko'p. Ayniqsa, futbol, basketbol va gandbol mashg'ulotlari barchamizga manzur. Har kuni oromgohda turli tadbirlar o'tkaziladi. Xususan, “Dunyo xalqlarining raqslari” festivalida guruhimiz bilan chiqish qilganimiz, shuningdek, “Yosh qutqaruvchi” musobaqasida ishtirok etganimiz biz uchun unutilmas taassurot qoldirdi. Filmlar ko'ramiz, raqslar o'rganamiz, noodatiy guldastalar tayyorlash bo'yicha tanlovlarda qatnashamiz, – deydi Ruxsora. Oromgoh bosh yetakchisi Sabot Fayziyeva suhbatimiz davomida shunday dedi:

– Oromgohimizda bolajonlarning dam olishini mazmunli tashkil etish maqsadida 14 kunlik maxsus dastur ishlab chiqilgan. Har bir mavsum va kun alohida mavzular asosida tashkil etiladi. Xususan, “Bolalar kulgusi – dunyo quvonchi” shiori ostida o'tgan birinchi mavsumda do'stlik, kitobxonlik, milliy qadriyatlar, sport, yong'in xavfsizligi va oila mavzulariga bag'ishlangan turli ma'naviy-ma'rifiy hamda ko'ngilochar tadbirlar o'tkazildi. Bolalarning qiziqishlari va istaklarini inobatga olgan holda rassomlik, milliy qadriyatlarimizni tarannum etuvchi kulollik, haykaltaroshlik, ekodizayn va interyer to'garaklari yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, turli taqdimotlar, intellektual o'yinlar, ko'rik-tanlovlar, konsert dasturlari, shaxmat-shahva va sport musobaqalari muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Mustasart aytganda, bunday maskanlar farzandlarimizning sog'lom, bilimli va faol bo'lib ulg'ayishiga xizmat qiladigan muhim tarbiya maskaniga aylangan. Biz kuzatgan manzaralar ham bu yerda bolalar uchun yaratilgan g'amxo'rlik va e'tiborning amaliy ifodasidir.

Dildora KARIMOVA.

■ Ishlab chiqarish

Mustaqilligimizning o'ttiz besh yilligini “Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” bosh g'oyasi ostida munosib mehnat zafarlari bilan kutib olishga qizg'in hozirlik ko'rilmogda. Biz ham jamoamiz bilan birgalikda belgilangan rejalarni o'z vaqtida bajarish, eng ulug', eng aziz bayramni mehnat zafarlarimiz bilan keng nishonlash harakatidamiz.



IZLAGAN IMKON TOPAR

Zavodimiz 2018-yil noyabr oyidan faoliyatini boshlagan. Mahalliy yoshlar, aholi vakillari bandligini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan korxonamizda ilk davrda 45 nafar ishchi-xodim mehnat qilgan bo'lsa, ish ko'lamini kengayishi hisobiga bugungi kunga kelib ular soni 130 nafargacha yetdi. Jamoamizning aksariyati o'z ishidan mamnun, davlatimizdan minnatdor yoshlardir.

Zavodimizda har xil turdagi metall konstruksiyalar, nostandart jihozlar ishlab chiqarilmoqda. Metallarga ishlov berish, payvandlash hamda metallarni ruxlash uchastkalarida ishlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Natijada, o'tgan sakkiz yilda 16 ming tonnaga yaqin mahsulot ishlab chiqarishga erishildi.

Yaxshi ma'lumki, yurtimizda qurilish va bunyodkorlik ishlari ko'lamini kengayib borayotganligi sababli, biz ishlab chiqarayotgan mahsulotlarga talab borgan sari oshmoqda. Jumladan, tez yig'iladigan, hajm jihatdan yengil bo'lgan har xil turdagi mahsulotlar, metall karkaslar ancha xaridorir. Kombinat buyurtmalaridan tashqari, hududdagi energetika, sanoat va qurilish sektorlari, tadbirkorlik subyektlariga ham xizmat ko'rsatib ke-

layapmiz.

Elektrgazpayvandchi, qozonchi, chilingar, stanokchi, shunga o'xshash o'ldiy kasb egalari bor kuch-g'ayratini tanlagan kasbi, zimmasiga olgan vazifani sidqidildan bajarish, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va korxona iqtisodiy ko'rsatkichlarini yanada oshirishga safarbar etib kelayotgan jamoamizning har bir vakili o'z ishidan, doimiy ish, daromad manbaiga ega bo'lganidan nihoyatda mamnun. Davlatimiz g'amxo'rligiga fidokorona mehnatlari bilan javob berishni o'z oldilariga maqsad etib qo'ygan va bunga erishib kelmoqda.

Kombinat rahbariyatining qo'llab-quvvatlashi natijasida so'nggi yillarda seximizni kengaytirish, mahsulot turlarini ko'paytirish, ishlab chiqarish sur'atini oshirish yo'lida keng ko'lamli ishlar olib borildi. Metallarni zangdan himoya qilishga mo'ljallangan ruxlash uchastkasi, konveyerlar uchun oyiga ming dona har xil turdagi rolklar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'linma ishga tushirish imkoniyatlarimizni yanada kengaytirib yubordi.

Zavod jamoasining izlanish va intilishlari tufayli konveyer liniyalari uchun

har xil turdagi metallkonstruksiyalar, mexanika uchastkasida turli kattalikdagi nasoslarning ehtiyoj qismlariga ishlov berish va sayqallash hamda yana ko'plab mahsulot turlarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Misol tariqasida aytish mumkinki, Nurota zaminida barpo etilgan 6-gidrometallurgiya zavodi qurilishiga korxonamizda ishlab chiqarilgan har xil turdagi metall konstruksiyalar, nostandart jihozlar, ehtiyoj qismlar o'z vaqtida yetkazilgani ushbu investitsion loyihani jadallashtirish va muddatidan oldin foydalanishga topshirish imkonini berdi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Joriy yilgi maqsadimiz yanada ulkan. Jamoamiz bilan birga 4 ming tonnadan ortiq standart va nostandart metallkonstruksiyalar ishlab chiqarishni rejalashtirganmiz. Bunga, kuch va sahohiyat, imkoniyatlarimiz yetarli. Nasib bo'lsa, belgilangan rejalarni o'z vaqtida, sifatli bajarishga erishamiz.

Abdusalom AMONOV,
Taxiatosh metall konstruksiyalar
va nostandart jihozlar ishlab chiqarish zavodi direktori.

■ Bugunning gapi

SUV RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH – DAVR TALABI



Bugun kombinatda yangicha fikrlaydigan, kashfiyotchi yoshlar safi kengaymoqda. Korxonaning izlanuvchan yoshlari geologiya, konchilik, mexanika, energetika, transport, texnika xavfsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilish va AKT kabi strategik yo'nalishlarda o'z iqtidorlarini namoyon etib, tengdoshlariga namuna bo'lishmoqda. Eng muhimi, ular ilgari surayotgan innovatsion g'oyalar amaliyotga tatbiq etilib, yuqori iqtisodiy samara bermoqda.

Dunyoda iqlim o'zgarishi va suv resurslarining taqchilligi sharoitida suvdan oqilona foydalanish asosan Qizilqum sahrosi hududida faoliyat yuritayotgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Suvdan samarali foydalanish korxonada tejamar raqamli texnologiyalarni joriy etishni talab etmoqda. Bu yo'nalishda kombinat yosh mutaxassislarining innovatsion g'oyalari va ratsionalizatorlik takliflari ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilib, iqtisodiy samara bermoqda. Jumladan, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish boshqarmasi Nazorat o'lchov asboblari va avtomatika markaziy laboratoriyasi mutaxassislari tomonidan suv resurslarini 30 foizdan 60 foizgacha tejash imkonini beruvchi avtomatik sug'orish boshqaruv tizimi yaratildi. Ushbu ratsionalizatorlik taklifi o'tgan yilning kuz mavsumida sinovdan o'tkazildi.

– Loyiha ustida ish boshlashdan avval mavjud tizimlarning

kamchiliklari, ayniqsa, suvning behuda sarflanishi va tuproqning me'yordan ortiq namlanib ketish holatlari o'rganildi. Shu paytgacha qo'llanib kelingan sug'orish usuli kutilgan natijani bermayotgan edi. Bunda bir qancha jiddiy muammolar mavjud edi. Nazoratning yo'qligi, ya'ni tuproqning haqiqiy namligi bilinmasdi, natijada yer yo' haddan tashqari ko'p sug'orilib yuborilar yoki suv tegmay qurib qoldirdi. Tuproqning pastbandligi hisobga olinmasdi. Oqibatda pastlik joylarda suv to'plansa, balandliklar quruq qolaverardi. Jarayon doimiy ishchi kuchini talab qilar va suv behuda isrof bo'lardi. Biz yaratgan avtomatik sug'orish boshqaruv tizimi zamonaviy elektronika, aqlli sensorlar va intellektual boshqaruv texnologiyalari yordamida kamchiliklarni to'liq bartaraf etdi, – deydi laboratoriyaning Avtomatlashtirilgan nostandart vositalarni tayyorlash laboratoriyasi boshlig'i Sardor Norbayev.

Ushbu boshqaruv tizimi sug'orish jarayonini inson ishtirokisiz, yuqori aniqlikda va belgilangan me'yorda amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Qurilma sug'oriladigan maydon rel'yefini avtomatik hisobga oladi va tuproq namligini real vaqt rejimida aniq nazorat qiladi. Bu esa ortiqcha sug'orish xavfini bartaraf etib, xizmat ko'rsatish xarajatlarni kamaytiradi. Bugungi kunda kombinat mutaxassislari tomonidan yaratilgan avtomatlashtirilgan nostandart vositani “Pistali” koni hududidagi Alisher Navoiy bog'ida ishga tushirish rejalashtirilgan. Laboratoriya boshlig'i Sardor Norbayev ushbu ratsionalizatorlik taklifi bilan kombinat ishchi-xodimlari va yosh mutaxassislari o'rtasida o'tkazilgan an'anaviy “Eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi” tanlovida ishtirok etib, tanlovning atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishida faxrli 1-o'ringa sazovor bo'ldi.

Dildora TO'LQINOVA.

Ota, ostonan gʻdan uchdim qush boʻlib...



Muhabbat BO'RONOVA 1983-yilda Buxoro viloyati, Shofirkon tumanida tugʻilgan. 2007-yil Galaosiyo pedagogika kasb-hunar kollejini tamomlagan. Butunjahon Xalq ijodkorlari uyushmasi aʼzosi. Ayni paytda u Markaziy kon boshqarmasi 2-gidrometallurgiya zavodida kran mashinisti kasbida ishlaydi.

Mening kombinatim

Jilgʻalar birlashib aylandi soyga,
Oʻzaniga sodiq daryo har bolang.
Dovrugʻing taratib butun dunyoga,
Bir mushtda jamlandi oʻgʻil-qizbolang.

Nishonga bexato urgan mergandek,
Hatto uyqusida kasbiga sodiq.
Har ishching sen uchun yaratilgandek,
Xizmati, mehnati tahsinga loyiq.

Mening kombinatim, mening zavodim,
Har oʻgʻil-qizingga tillo beshiksan.
Qadrim ulugʻlagan aziz makonim,
Allohd neʼmat qilgan rizq eshigisan.

Jonajon kombinatim aziz bagʻringda,
Nihollar ulgʻayib chinorlar boʻldi.
Oʻsib qulocho yoyib butun jahonga,
Yutugʻing yurt uchun iftixor boʻldi.

Hamon yosh bolaman

Ota, ostonangdan uchdim qush boʻlib,
Qoʻling titray-titray qilding duolar.
Goʻyo togʻdek qadding qoldi egilib,
Bugun ertak endi bolalik chogʻlar.

Buncha yiroqlarga otildi ekan,
Qizing taqdirining palahmon toshi.
Qiz bola chorasiz ojiza ekan,
Sogʻinchdan tinmadi koʻzining yoshi.

Mahzun tikilaman tun kechalarga,
Xayol yetaklaydi qoʻymay holimga.
Qadrdon qishloqqa, tor koʻchalarga,
Bolaligim oʻtgan ota hovlimga.

Hamon yosh bolaman, tol bargin taqqan,
Qadoq qoʻllaringiz ishonch-la tutgan.
Eski qoʻgʻirchoqʻin bagʻriga bosib,
Ostonada turib otasin kutgan.
Hamon yosh bolaman tol bargin taqqan...

Ona tilim

Hayqirigʻim dunyolarga borib aytgan,
Aks-sadosi diltorimni chertib qaytgan,
Tafakkurim jumlalarda bayon etgan,
Onam aytgan allasiga ohang soʻzim,
Oʻziligimni anglatganim – ona tilim.

Yomgʻir yogʻib birlashmasa jilgʻa boʻlmas,
Chavandozsiz asov tulpor yoʻrgʻa boʻlmas,
Oʻzbek soʻzin sensiz tarix yoza bilmas,
Bolalikdan hayot yoʻlim, soʻzlar soʻzim,
Oʻzligimni anglatganim – ona tilim.

Qodiriylar soʻz ochganda, siyratingdan,
Fojiangni ayon qilgan suratingdan,
Qatl qilib qutildilar Fitratingdan,
Bir soʻz demay unsiz faryod qilgan elim,
Oʻzligimni anglatganim – ona tilim.

Choʻlpon oʻgʻling ozod qilmoq istar edi,
Oʻzi yozgan kechada u yulduz edi,
Mana ozod, ular uchun hayqir endi,
Soʻz gulshanin bogʻi boʻldi soʻlim-soʻlim,
Oʻzligimni anglatganim – ona tilim.

Bolalar uyining farishtalari

Keng bir hovli, toʻrt tomon devor,
Oʻgʻil-qizga toʻlgan oʻyingoh.
Bunda faqat bolajonlar bor,
Mungli boqar chorasiz nigoh.

Tong azondan xuftonga qadar,
Bir shaklda oʻtar hayoti.
Har insondan kutar bir xabar,
Ovozsizdir hatto faryodi.

Ona bagʻrin taftini bilmas,
Ota mehrin his qila olmas.
Bir umid bor jajji qalbida,
Ular kelsa bu yerda qolmas.

Bolalarcha orzusin aytib,
Tengdoshiga qoʻyar maqtanib.
“Meni onam uzo-o-qqqa ketgan,
Kelsa olib ketadi qaytib.”

Bir koʻrmagan onasin maqtab,
Deydi: “Onam – eng goʻzal ona.
Koʻp pul topar, ishlarga qatnab,
Mening dadam – eng yaxshi dada.”

Besh bolaning otasi kabi,
Tengdoshlari qolgan ulgʻayib.
Fikr qilar keksalar kabi,
Jajji qalbda isyon uygʻonib.

Qani robbim imkon boʻlsaydi,
Hammangizga ona boʻlardim.
Farishtalar aylagan makon –
Oilamga olib ketardim.

Har xil vaju karsonlar qilib,
Tirik yetim qilmang bolangiz.
Gʻam-anduhlar ketadi qolib,
Bir kun nurga toʻlar xonangiz.

Farzandidan voz kechmoqlikka,
Majbur boʻlgan ota-onalar.
Imkon boʻlmas, bir quchmoqlikka,
Dilbandingiz sogʻingan onlar.

Sizlarsiz ham oʻtadi kuni,
Davlati bor, koʻchada qolmas.
Kemtik boʻlar begʻubor koʻngli,
Ogʻriqli bir xotira qolar.

Har qanday korxona va tashkilotning muvaffaqiyati, avvalo, uning kadrlar salohiyatiga bogʻliq. Malakali, bilimli va zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan hisoblanadi.

BARQAROR TARAQQIYOT GAROVI

Bu borada Markaziy kon boshqarmasi Temir yoʻl transporti boshqarmasi Kadrlar byurosi tomonidan tizimli va samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Kon boshqarmasining Oʻquv markazi bilan hamkorlikda ishchi, rahbar va mutaxassislarni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirishga alohida eʼtibor qaratil-yapti. Soʻnggi uch yilda 164 nafar xodim qayta tayyorlash kurslarida kasbiy bilim va koʻnikmalarini bugungi kun talablari asosi-da takomillashtirgan boʻlsa, 143 nafar xodimning malakasi oshirildi. Oʻquvlar ishlab chiqarish jarayonlarida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, mehnat muhofazasi talablariga rioya etish hamda

ish samaradorligini yanada oshirishga zim-mat qilmoqda.

Boshqarmada mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va mutaxassislar za-xirasini shakllantirish maqsadida 59 nafar xodim turli kasblarga oʻqitildi. Maqsadli kurslar doirasida 264 nafar xodim maxsus dasturlar asosida bilim va tajribalarini bo-yitishdi.

Muhandis-texnik xodimlarning bilim va malakasini muntazam oshirib borish asosiy vazifalarimizdan boʻlib qolmoqda. Shu bois 68 nafar muhandis-texnik xodim malaka oshirish kurslariga jalb qilinib, oʻz sohasi boʻyicha zamonaviy bilimlarga ega boʻldi.

Oʻzbekiston Respublikasi Transport va-zirligi huzuridagi Transport sohasi kadrlari-ni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti bilan hamkorligimiz yaxshi natija beryapti. Mazkur institutda 303 nafar xo-dimning malakasi oshirildi hamda 28 nafar

xodim qayta tayyorlash kurslarida muvaf-faqiyatli ishtirok etdi.

Temir yoʻl transporti boshqarmasi Kadr-lar byurosi jamoasi inson kapitalini rivoj-lantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar zaxirasini shakllanti-rishga munosib hissa qoʻshmoqda. Eng muhimi, xodimlarning kasbiy mahorati va masʼuliyati oshib, korxonaning barqaror faoliyati hamda kelgusi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratilmoqda.

Hayotjon SHARIPOV,
MKB Temir yoʻl transporti boshqar-masi Kadrlar byurosi boshligʻi.

QANOT JUFT BOʻLSA...

Mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni taʼminlash davlat siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti, oila mustahkamligi va iqtisodiy rivojlanishda ayol va erkakning oʻrni birdek muhimdir.

Muhtaram Prezidentimiz-ning tashabbuslari bilan xotin-qizlarga oid davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri xotin-qizlarni sifatli taʼlim bilan toʻliq qamrab olish, ayniqsa, oliy taʼlim tizimiga ularni keng jalb etishdan iboratdir. Soʻnggi yillarda bu borada katta ishlar qilinmoqda. Xususan, oliy taʼlim muassasalarida xotin-qizlar uchun ajratilayotgan kvotalar soni yildan-yilga oshirilib borilmoqda, grantlar, taʼlim kreditlari, soddalashtirilgan qabul tizimlari va boshqa bir qancha ijtimoiy imtiyozlar joriy etilmoqda.

Azal-azaldan oʻzbek xona-donlarida farzandlar, ayniqsa, qiz farzandlarni tarbiyalashga alohida masʼuliyat bilan yon-dashiladi. Donishmand ajdod-larimizning “Oʻgʻlingni oʻqitib, erkakni tarbiyalaysan, qizingni oʻqitib, butun millatni tarbiya-laysan” degan purmaʼno oʻgiti bugungi kun va yorqin kelajak uchun bebaho hikmatligi oy-dan-da oydin haqiqat!

Konchilik sohasi asosan erkaklar mehnati ustun tar-moq boʻlsa-da, bugungi kun-da sohada mehnat qilayotgan xotin-qizlar soni yil sayin ortib bormoqda. Ular muhandislik,

geologiya, iqtisod, mehnat muhofazasi, tibbiyot va bosh-qa koʻplab yoʻnalishlarda oʻz bilim va salohiyatlarini namo-yon etib, korxonalar rivojiga munosib hissa qoʻshmoqdalar. Tenglik degani ayol va erkak-ning bir xil vazifani bajarishi emas, balki har ikkisiga oʻz qobiliyatini namoyon etish uchun teng imkoniyat yaratilib berilishidir. Jamiyatda har bir insonning mehnati, bilim va tashabbusi qadrlanishi lozim. Ana shunda haqiqiy adolat va taraqqiyot taʼminlanadi.

Oilada oʻzaro hurmat va hamjihatlik chanchalik muhim boʻlsa, mehnat jamoalarida ham shunchalik ahamiyatlidir. Ayollarga nisbatan hurmat, ularning huquq va manfaat-larini himoya qilish, munosib mehnat sharoitlarini yaratish har bir jamoaning muhim va-zifasidir. Konchilar jamoasida ayol va erkaklarning oʻzaro

hamkorligi, bir-birini qoʻllab-quvvatashi yuqori mehnat samaradorligiga xizmat qil-moqda. Alalxusus, koʻpming kishilik bizning Janubiy kon boshqarmamizda davlatimiz-ning “Moʻtabar ayol”, “Ibratli oila” koʻkrak nishonlari hamda “NKMK faxriysi” koʻkrak nisho-ni sohiblari boʻlgan xotin-qizlar borligi quvonarli holdir.

Ayol va erkak – hayotning ikki qanoti. Qanot juft, bosh-qacha aytganda, ular huquqda hamkor, jamiyatda teng boʻl-gandagina mamlakat taraqqi-yoti va xalq farovonligi yanada yuksaladi. Shu bois har birimiz hayotimizda tenglik, adolat va oʻzaro hurmat tamoyillarini qa-ror toptirishga hissa qoʻshishi-miz zarur.

Habiba
ABDUMURADOVA,
JKB Ayollar kengashi
raisi.

BOLALAR XAVFSIZLIGINI TAʼMINLAYLIK

Yoz faslining saraton oylari ham oʻtib bormoqda. Xilma-xil mevalar ayni pishib etiladigan vaqt. Sogʻlomlashtirish oromgohlarida bolalarning yozgi taʼildagi dam olishlari davom etmoqda.

Bolalarimiz oromgohlarda yaratilgan qulayliklar va sharoitlardan bahramand boʻlib, turli toʻgaraklar, sport oʻyinlarida qatnashib, yangi oʻquv yiliga tayyorlan-moqdalar. Xullas, oromgohlardagi kunlar xursandchilik va dam olishlar bilan oʻt-yapti. Har bir dam olish maskani bolalarni qabul qilish uchun puxta tayyorgarlik koʻr-gan. Oromgohlar maʼmuriyati bolalarning yashash va dam olishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish bilan kifo-yalanib qolmay, hordiq davrida koʻngilsiz hodisalar sodir boʻlishining oldini olishga eʼtibor berishi tabiiy hol. Bu jihatdan orom-gohlarni mavsumga tayyorlash davrida yongʻin xavfsizligi choralarining koʻrilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning oromgohlarda dam olishi boshlanishidan oldin Favqulodda vazi-yatlar organlari davlat nazorati xodimlari tomonidan dam olish mavsumini koʻngil-siz hodisalarsiz oʻtkazish uchun rejalar tu-zilib, zarur chora – tadbirlar belgilandi va ular doimo nazorat qilinmoqda.

Oromgohlarni mavsumga tayyorlash chogʻida koʻpincha bir qator arzimasek tuyulgan kamchiliklarga eʼtibor berilmaydi. Agarda bu yongʻin xavfsizligini taʼminlash

masalasiga borib taqaladigan boʻlsa, aslo loqaydlik qilib boʻlmaydi. Chunki kichki-nagina nosozlik va eʼtiborsizlik oqibatida uchqun, katta yongʻin chiqishi hech gap emas.

Bolalarning dam olish mavsumi boshla-nishidanoq va uch oy dam olish vaqtlarida yongʻinlar sodir boʻlishiga yoʻl qoʻymaslik maqsadida joriy yilning aprel oyida “Za-rafshon” hamda “Tabassum” bolalar sogʻ-lomlashtirish oromgohlarining yongʻinga qarshi holati tekshirib chiqilib, 41 banddan iborat yozma koʻrsatma oromgohlar di-rektorlariga topshirildi. “Zarafshon” ham-da “Tabassum” bolalar sogʻlomlashtirish oromgohlarida yongʻin xavfsizligini taʼmin-lash maqsadida Favqulodda vaziyatlar organlari davlat nazorati xodimlari tomo-nidan bolalar oromgohlarining yongʻinga qarshi holati toʻliq nazorat ostiga olindi.

Oromgohlarda yongʻin xavfsizligini taʼminlash, tarbiyachi va bolalar bilan tu-shuntirish ishlarini olib borish, suhbatlar oʻtkazish, yosh yongʻin oʻchiruvchi druji-nalarni tashkil etib, ular oʻrtasida yongʻin-ga qarshi kurashish mavzusida viktorina-lar tashkil etish, musobaqalar oʻtkazish, yongʻinga qarshi targʻibot ishlarini ku-

chaytirish uchun bolalar sogʻlomlashtirish oromgohlariga Favqulodda vaziyatlar or-ganlari davlat nazorati xodimlari birliktirildi. Oromgohlarning yongʻin oʻchirish reja va varaqalari oʻrganib chiqilib, shaxsiy tarkib bilan amaliy mashgʻulotlar oʻtkazildi.

Haftaning har chorshanba kuni “Favqu-lodda vaziyatlar va yongʻinlar profilaktikasi kuni” deb eʼlon qilingan. Shu kuni bolalar sogʻlomlashtirish oromgohlarida barcha ishchi-xizmatchilar, tarbiyachi hamda bo-lalarga yongʻin sodir boʻlganda birlamchi yongʻin oʻchirish vositalaridan foydala-nish, favqulodda yongʻin sodir boʻlganda harakatlanish tartibi, elektr jihozlaridan toʻgʻri foydalanish toʻgʻrisida tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, qut-qaruv avtomobillari hamda qutqaruv qu-rol-aslahalari namoyishi oʻtkazildi. Uchra-shuvda qatnashchilar sohaga oid oʻzlarini qiziqtirgan savollarga ijobiy javoblar olish-di.

Barcha fuqarolarga murojat qilib, dam olish taʼtillarini uylarida oʻtkazayotgan oʻquvchilar, bolalar va maktabgacha yoshdagi bolalarni doimiy nazorat qilib, ularning olov bilan oʻynashlariga yoʻl qoʻy-masliklarini soʻrab qoldirlik.

Sunnat RAXMATOV,
“Markaz” KB OFVB inspektori,
kapitan.
Sardor NARZIYEV,
“Markaz” KB OFVB kichik
inspektori, kichik serjant.